O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI
ZAFAROBOD TUMAN HOKIMINING
QARORI

708806 Zafarobod sh. Mustaqillik ko’chasi 1-uy. Tel (72)472-24-20 e-mail:zafarobod.t@exat.uz

2023 - yil 22 - noyabr 175-3-50-Q/23 Zafarobod tuman hokimligi

Zafarobod tumani “Bo‘ston” MFY hududida yangi qurilgan 1 ta 5 qavatli 2-3 xonali qurilishi tugallangan ko‘p qavatli uy-joylar binosini foydalanishga qabul qilish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 martdagi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipateka kreditlarni ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6186-sonli Farmoni, Qurilishi tugallangan ob’ektni foydalanishga qabul qilish to‘g‘risida Davlat qabul hay’atining 2023 yil 18 noyabrdagi dalolatnomsini ko‘rib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Davlat qabul qilish xay’atining 2023 yil 18 noyabrda tuzilgan “Qurilishi tugallangan ob’ektlarni foydalanishga qabul qilish haqida”gi dalolatnomasi tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 martdagi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipateka kreditlarni ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6186-sonli Farmoniga muvofiq “Bo‘ston” MFY hududida yangi qurilgan 1 ta 5 qavatli 2-3 xonali “Jizzax qishloq qurilish servis” MChJ tomonidan qurilgan ko‘p qavatli uy-joylar foydalanishga qabul qilinsin.

3. Tuman elektr ta’minoti korxonasi (Q.Qulmatov)ga qurilishi tugallangan ko‘p qavatli uy-joylari uchun tortilgan elektr tarmog‘ini belgilangan tartibda

foydalanishga qabul qilish va korxona tasarrufiga olish vazifasi topshirilsin.

4. “Hududgaz Jizzax” MChJ “Zafarobodtumangaz” gaz ta’minoti filiali (Sh.Akromov)ga qurilishi tugallangan ko‘p qavatli uy-joylari uchun tortilgan tabiiy gaz tarmog‘ini tegishli tartibda foydalanishga qabul qilish va korxona tasarrufiga olish vazifasi topshirilsin.

5. “Jizzax suv ta’minoti” MChJ Zafarobod tuman bo‘limi (D.Axmedov)ga qurilishi tugallangan ko‘p qavatli uy-joylari uchun tortilgan ichimlik suvi tarmog‘ini tegishli tartibda foydalanishga qabul qilish va korxona tasarrufiga olish vazifasi topshirilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari v.v.b H.Xolmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b **J.Suyarov**